


## **Xorazm viloyatida 2016-yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning rivojlanishi**

Mamlakatimizda 2016-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalar imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2016-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2802,7 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,1 foizni tashkil qildi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2016 yil holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 91,26 foizni tashkil etdi (2015-yilga nisbatan o'sish sur'ati 92,3 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,01 foizni (o'sish sur'ati 156,8 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 7,83 foizni (o'sish sur'ati 100,9 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,9 foizni (o'sish sur'ati 122,8 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Bog'ot tumani (111,1 foiz), Shovot tumani (118,4 foiz), Xiva tumani (2015-yilga nisbatan 115,4 foiz va Yangiariq tumani (110,4 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin.

**2016-yil shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)**




**2016-yilda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd. so'mda)**



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Urganch shahri, Xazorasp tumani, Xonqa va Shovot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

**2016-yilda shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Urganch shahri 30,2 foiz, Xazorasp tumani 24,4 foiz, Xonqa 8,4 foiz, Shovot 7,0 foiz, va Bog'ot tumani 5,4 foizni tashkil qiladi.

**2016-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.**

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>2802,73</b>	<b>93,1</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,32</b>	<b>156,8</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,32	156,8
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>2557,82</b>	<b>92,3</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	767,98	111,1
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	108,6	73,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	699,63	103,4
Kiyim ishlab chiqarish	13,77	100,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,5	179,7

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,96	77,9
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	10,01	131,6
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,45	92,5
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,01	26,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,83	108,4
Asosiy farmasevtika	3,71	116,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	13,51	82,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	114,38	115,6
Metallurgiya sanoati	3,41	173,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	59,85	127,3
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,57	6,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	17,14	89,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	83,17	111,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	499,81	58,6
Mebel ishlab chiqarish	16,16	82,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	115,49	226,9
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	15,88	178,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	219,33	100,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	25,26	122,8
<b>Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>1671,2</b>	<b>93,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	643,5	98,2
nooziq-ovqat tovarlari	995,3	90,5


**2016-yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**  
(mlrd. so'm)




Viloyatda 2016 yilda 1671,2 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2015-yilga nisbatan 93,8 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlarda 643,5 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 995,3 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2015-yilga nisbatan o'sish mos ravishda 98,2 foiz va 90,5 foiz) ishlab chiqarildi.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste'mol tovarlari ishlab cchiqarish hajmiga nisbatan foizda)

2015 yil




2016 yil




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari


**2016-yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(foizda)**



**2016-yilda shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**2016-yilda shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**

**“Sanoat statistikasi” bo’limi**

**Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov**

**Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**